

QADIMGI QASHQADARYO VOHASINI TARIXIY YODGORLIKLARINI ILMIY TAHLIL QILISH (ERQO‘RG‘ON ARXEOLOGISI MISOLIDA)

Odilova Fayoza Odil qizi

*“Arxitektura nazariyasi va tarixi” kafedrasi o‘qituvchisi
(Samarqand Davlat Arxitektura-qurilish Universiteti)*

Annotatsiya: Mazkur maqolada, Qarshi shahrining kechmishi qadimiy Erqo‘rg‘on, Zahhoki Moron, Nasaf (Naxshab) – SHulluktepa manzillaridagi tarixini o‘rganish. Arxeologlarning ma‘lumotlariga qaraganda, Qarshi vohasida birinchi shahar hozirgi qarshi shahridan shimolda joylashgan qadimgi Erqurg‘onda miloddan avvalgi VI-II asrlarda shakllanganligi. Uning eramizdan avvalgi VI-II asrlarda bunyod etilgan devor tuzilishi va maydonini tashkil etilganligi to‘g‘risida ma‘lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Madaniy meros, ob‘ekt, qadimiy Erqo‘rg‘on, Zahhoki Moron, Nasaf (Naxshab), SHulluktepa, arxeologik, mahobatli san‘at, Sosoniy, Eftalit, imperiya, tarixiy obida, madaniy yodgorlik.

Kirish. Prezidentimiz rahnamoligida milliy madaniyatimizni asrab-avaylash, rivojlantirish, yurtimizdagi tarixiy obida va yodgorliklarni qayta tiklash, o‘rganish va kelajak avlodlarga bus-butun etkazish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizning moddiy va nomoddiy madaniy meros ob‘ektlarini muhofaza qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar salmog‘i katta. Ayni paytda YUNESKO Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga O‘zbekistondagi 4 ta me‘moriy majmua – Xiva, Buxoro, Samarqand va SHahrisabz shaharlarining tarixiy markazlari kiritilgan.

Keyingi paytlarda O‘zbekiston hududidagi noyob madaniy meros ob‘ektlarini muhofaza qilish, tarixiy shaharlarning bosh loyihasi va menejment rejasini YUNESKO xalqaro standartlari hamda talablariga muvofiq ishlab chiqishda mazkur tuzilmaning xalqaro ekspertlari ham keng jalb etilmoqda. YUNESKO bilan yaqin hamkorlikda moddiy va nomoddiy meros ob‘ektlarini asrashga doir turli xalqaro anjumanlar tashkil qilinmoqda.

Mazkur tadbirlar madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish yo‘lidagi dolzarb muammolarni ko‘rib chiqish, xalqaro tajribani o‘rganish, tarixiy-madaniy meros saqlanishini ta‘minlashga doir milliy tizimni takomillashtirish, bu yo‘nalishdagi davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini aniqlash imkonini bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros ob‘ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni keyingi vaqtda mavjud tarixiy obida va madaniy yodgorliklarni asrab-avaylash, obodonlashtirish ishlari maxsus dastur asosida olib borilmoqda. Madaniy meros ob‘ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish davlat inspeksiyasi bo‘limi etakchi mutaxassislari ishtirokida tuzilgan tarixiy-madaniy ekspertiza komissiyasi tomonidan tuman va shaharlardagi madaniy meros ob‘ektlari, yodgorliklar to‘la o‘rganib chiqilmoqda Bunda kadastr-baholash, muhandislik-tadqiqot, toponomik, kartografiya ishlari amalga oshirilmoqda. mamlakatimizdagi tarixiy yodgorliklarning kadastr hujjatlari, ob‘ektlarning pasportlari tayyorlandi. SHu kunlarda xalqaro loyiha asosida mamlakatimiz va xorijlik tarixchi olimlar, arxeologlar hamkorligida ilmiy jihatdan tahlil qilish uchun yodgorliklarda qazilma va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Qashqadaryo vohasida miloddan avvalgi asrlarda vujudga kelgan, yoshi jahonning eng qadimgi manzillari bilan bo‘ylashadigan shaharlar bor. SHahrisabz va Qarshi ana shunday shaharlardandir.



SHahrisabz va Qarshining 2700 yillik yubileylari nishonlanishi va ularning ulug' yoshi jahon miqyosida tan olinib, hukumatimiz qaroriga muvofiq bayram sifatida tantana qilingani fikrimizning yorqin isbotidir.

Qarshi shahrining kechmishi qadimiy Erqo'rg'on, Zahhoki Moron, Nasaf (Naxshab)–SHulluktepa manzillarida o'tgan. Arxeologlarning ma'lumotlariga qaraganda, Qarshi vohasida birinchi shahar hozirgi qarshi shahridan shimolda joylashgan qadimgi Erqurg'onda miloddan avvalgi VI-II asrlarda shakllangan. Eramizdan avvalgi VI-II asrlarda u ikki qator devor bilan o'ralgan va maydoni 150 gektar (tanob)ni tashkil etgan.

Qarshi vohasi markazining tarixi Bobil (Iroq), Aleksandriya (Misr), Erevan (Armaniston), Taksila (Pokiston) kabi qadimgi shaharlar rivojiga o'xshashdir. CHunonchi, VI asrda Turk hoqonligi va Eron Sosoniylari tomonidan Eftalitlar imperiyasiga qarshi olib borilgan janglarda Erqo'rg'on yonib, vayronaga aylangan. SHundan so'ng, Qarshi vohasi poytaxti Erqo'rg'onning Janubiy-G'arb tomonidagi Qashqadaryoning Janubiy sohili bo'yida, hozirgi SHulluktepa o'rnida qad ko'taradi. U tarixda Naxshab (arabcha - Nasaf) nomi bilan ma'lum va mashhur.

Naxshab XIII asrda CHingizxon bosqinchilari tomonidan vayron qilingach, voha markazi uchinchi marotaba hozirgi Qarshining eski shahar qismi o'rnida qayta tiklangan. SHu tariqa Erqo'rg'on, Naxshab va Qarshi shaharlari Qarshi voxasi markazining taraqqiyot bosqichlarini o'zida mujassam etgan. Erqo'rg'on va Zahhoki Moron (m.a. II-I asrlar)da arxeologlar tomonidan topilgan ko'hna ashyolar o'zbek xalqining ajdodlari eng qadimgi zamondan o'troq hayot kechirib, davlat tuzumi asosida shahar madaniyatini yaratganligini va hunarmandchilik, san'at rivojlanganligini tasdiqlaydi.

Nasaf IX-XII asrlarda Janubiy Sug'dning asosiy shaharlaridan hisoblangan. Unda rabot, shahriston, karvonsaroylar, masjid va madrasalar mavjud bo'lgan. Manbalarda Nasafning Boyon guzarida buyuk muhaddis Imom Buxoriy istiqomat qilganligi, Nasafda xadishunoslik maktabi faoliyat ko'rsatganligi va bu shahar IX-X asrlarda o'ziga xos ilmiy-madaniy markazlardan biri darajasiga ko'tarilganligi qayd etilgan. Mazkur shaharda turli davrlarda 200 dan ziyod Nasafiylar yashab, ijod etgan.

Istiqlol tufayli O'zbekistonda madaniy merosga nisbatan munosabat ijobiy tomonga o'zgardi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, SHahrisabz kabi qadimiy shaharlarning qutlug' yubileylari o'tkazilib, ulardagi umumbashariy madaniyatning bebaho durdonalari bo'lgan me'moriy obidalar qayta tiklandi. Xuddi shunday navbat o'zining boy tarixi va madaniy merosiga ega bo'lgan Qarshi shahriga ham etib keldi va shahar yubileyi nishonlandi.

Qarshining hozirgi kungacha saqlangan me'moriy yodgorliklari - Ko'kgumbaz, Qashqadaryo ko'prigi, Qarshi hammomi, SHarofboy, Bekmurodboy, Qilichboy, Abdulazizboy madrasalari, Odina jome' masjidi, Qarshi sardobasi, Abu Ubayda bin al-Jarroh ziyoratgoxi va Xonaqo masjidi majmuasi hukumatimiz va xalqimiz ardog'ida.

Qarshi shahridagi Ko'kgumbaz masjidi, Qashqadaryo ustiga qurilgan g'ishtko'prik, qadimiy hammom va madrasalar o'zbek me'morchiligining noyob namunalaridan bo'lib, ularning har biri o'z tarixiga ega. Bu obidalar O'zbekistondagi ko'plab tarixiy-madaniy yodgorliklar kabi yuksalishi ulug'vorlik davrlarini ham, e'tiborsizlik va tahqirona tazyiqlarni ham, vayrongarchilik va tushkunlik holatlarini ham boshidan kechirgan.

Hozirgi O'zbekistonning Qashqadaryo viloyati qadimgi so'g'd vohasining unumdor dehqonchilik hududini egallagan bo'lib, qadimda o'z suvlarini Amudaryoga quyuvchi Zarafshon va Qashqadaryo daryolari oralig'ida, movarounnahrning qoq markazida joylashgan. Movarounnahrning barcha tarixiy rivojlanish bosqichlari ushbu viloyat bilan chambarchas bog'liqdir. Kitob va SHahrisabzda joylashgan qadimgi shaharlarda olib borilgan qazish ishlari davomida arxeologlar tomonidan topilgan xilma xil moddiy boyliklar va tangalar silsilasi antik so'g'diyonaga xos bo'lgan boy madaniyatdan dalolat beradi. Antik davrdan keyingi ilk asrlardagi mustaqil davlatlar hisoblanmish Kitob, Zahoki Maron va Qarshi yaqinidagi Erqo'rg'on shaharlari tarixiy qatlamlarda yorqin iz qoldirgan. YAngi eraning V asri kelib esa

antik shaharlarning tanazzulga yuz tutishi kuzatiladi. IV-VII asrlarda birin-ketin ilk feodallarning mustahkam qal'alari paydo bo'la boshladi. (Muddintepa, SHo'rtepa, SHulluktepa va boshqalar shular jumlasidandir). Arxeologik qazishmalar mobaynida IV-VII asrlarda mavjud bo'lgan Kadjar-tepa, Tog'aytepa, Ko'xnafazli shaharchalarining qoldiqlari topildi. SHu vaqtda Kesh viloyati (Kitob va SHahrisabz) va Naxshab (hozirgi Qarshi shahri) turk hoqonligi davlatining to'qqiz federatsiyasi tarkibiga kirardi. Ular muxtoriyat hisoblanar hamda Samarqandda hukmronlik qiluvchi hoqonga hiroj to'lardi.

O'sha vaqtdagi shaharlarda loydan qurilgan qalin devorlar, ularda qo'riqlash uchun baland minoralar va mustahkam darvozalar, ba'zi shahar darvozalarida esa mustahkam qulflar mavjud edi. SHahar hududi gavjum aholi yashaydigan ijtimoiy - madaniy markaz hisoblanardi.



1-rasm. Qashqadaryo viloyatida Qarshi Qarshi shahridagi Ko'kgumbaz masjidi

XVI asr oxirlarida Abdullaxon II (1557-1598) hukmdorligi davrida Markaziy Osiyoda katta qurilishlar avj olgan. Qarshi shahrida o'sha vaqtda Madrasa, hammom, hashamdor Ko'kgumbaz namozgohi qo'rilgan, hatto Qashqadaryo ustiga ko'prik ham solingan.

Odatda, guzar, jome' va hokazo masjidlarning devori yoki binolar bilan o'ralgan hovlisi bo'lgan. Namozgohlar esa ochiq, keng maydonda mehrob devori bilan qiblaga qaratilgan yagona binodan tashkil topgan. Ko'kgumbaz jome' masjidi ana shunday namozgohlardan bo'lib, o'tmishda «Namozgoh», «Juma masjidi» deb atalgan.

Masjid binosi gumbaz tomli asosiy bosh xona - xonaqoq hamda uning ikki yonidagi chap va o'ng qanot qismlaridan iborat. Tarhi tug'riburchak shaklida bo'lib, uzunligi 38.25 metrga teng. Qisqa tomonlarining biri 14 metr, ikkinchisi esa 14.6 metr. Asosiy xonaning tarhi 8 metrli kvadrat, u yon devorlariga ishlangan ravoqli yo'lak bilan qanot qismlariga bog'langan. Qanot qismlarining har biri ikki qator bo'lib tushgan to'rt xonadan tashkil topgan. Xonalar tepasi gumbazlar bilan yopilgan. Binoning yuza va yon tomonlaridagi xonalarning oldi o'z vaqtida ayvon singari ochiq bo'lgan. Hozir ularga g'isht terilib, yon tomondagilarning butunlay yopilganligini, yuzadagilarning esa qisman toraytirilganligini ko'ramiz. Xonalar, o'z navbatida, bir-biriga ravoqli bo'shliqlar orqali ochiladigan qilib qurilgan. Asosiy xonaning qibla tomonidagi devorida mehrob, yonida esa pog'onali minbar mavjud. Mehrob eniga ancha chuqur ishlangani uchun bino orqasidagi devor bir oz kengaygan. U xonaqoq o'rtasidan chetroqqa surilgan holatda joylashgan. Xonaning oldi yon qanot qismlar bilan uzviy bog'langan peshtoqdan iborat. Uning qalin dahanalari ichida aylana zinalari yon qanotlar binoning tomiga olib chiqadi.

Balandligi 14 metrga teng xonaqohning tepasi qanotlarga qo'ndirilgan ichki gumbaz bilan yopilgan, xonaqohning qibla tomoni devorida mehrobni o'rab olgan katta ravoq ichkarisi qalqonsimon mayda bag'alli yarim gumbaz shaklida. Yon qanot xonalarning gumbazlari qabariq ko'rinishdagi ganchkor bag'al tarzida ishlangan. Bino, asosan, 26x26x5 va 28x28x6 santimetrli chor g'ishtlar bilan qurilgan. SHuningdek, peshtoqning qalin devorlari ichini to'ldirish hamda xarsang toshli poydevorlarning tagini tekislash uchun g'isht parchalari ishlatilganligi ham aniqlandi.

Poydevorlar nisbatan uncha chuqur emas - 0.7-1.1 metr, qalinligi ham devorlar qalinligiga teng, unda tuproq bilan to'ldirilgan joylari ham uchraydi.

Binoning eng asosiy, mo'tabar qismi honaqoh hisoblanadi. CHunki bu xonada namozxonlarga qibla tomonni belgilab beruvchi Mehrob joylashgan. Namozgoxning old qismiga ulkan peshtoq va Xonaqoh ustiga uzoqdan yaqqol ko'rinadigan baland moviy gumbaz qurilgan. Peshtoqni sirlangan koshinlar bilan bezatilishi ham shu maqsadda qilingan (yon qanot qismlari bezatilmagan).

Binoni bezagan qoplamalariga moviy, ko'k, zangori va oq rangli koshinlar hamda silliqlangan g'ishtlar ishlatilgan. Peshtoqning ichki va yon devorlaridagi bezaklar sirlangan qadama g'ishtlaridan terilgan

sodda shaklli geometrik naqshlar hamda ularga bitilgan xatlardan iborat (xatlarda «Olloh», «Muxammad» va boshqa soʻzlar yozilgan).



2-rasm. *Qashqadaryo koʻprigi*. Pishiq gʻishtdan ravoqli koʻprik qurish tajribasi Oʻrta Osiyoda ilgaridan rasm boʻlgan, ilk oʻrta asrlar davriga kelib u ancha takomillashtirilgan. Bizgacha etib kelgan koʻhna koʻpriklar XVI asrning ikkinchi yarmiga taalluqli boʻlib, ular orasida Qashqadaryo ustida qurilgan koʻprik eng katta hisoblanadi.

Daryo oʻzanini kesib oʻtgan, gʻishtdan qurilgan koʻprikning oʻn ikkita mustahkam pillapoyasi oyoqlari keng va past ravoqlar orqali tutashtirilgan. Koʻprikning uzunligi - 122 metr, eni - 8.2 metr, daryo tubidan oʻrtadagi yul qoplamigacha boʻlgan balandligi - 5.35 metr. Koʻprikning har ikki tomonidagi ravoqlar oraligʻidagi pillapoyalar juda baquvvat silindirsimon, gʻishtli tirgovichlar bilan mustahkamlangan. Uning asosi pastga tomon kengaytirib borilgan, har birining diametri qariyb 4 metr keladigan burjlarga birlashtirilgan. Maromi bilan terilgan gʻishtin burjlar qatori, ravoqning chuqur jar tepasida ekanligi, koʻprikning ustki tuzilishi chidamli, puxta inshootning meʼmoriy qiyofasidan darak beradi.

Daryo oʻzanining kengaytirilganligi sababli koʻprik 1914 yilda qayta qurilgan. Qirgʻoqning chetki kuhna pillapoyalari yangilangan. Koʻprikning ikki tomoniga qorovulxonalar qurilgan. Bu bajarilgan ishlar gʻisht plitaga yozib quyilgan. Rivoyatda Qashqadaryo koʻprigining qurilishini Abdullaxon II ga nisbat beriladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, xalqimizning qadimiy tarixidan soʻzlaydigan noyob yodgorliklarni asrash, oʻrganish, tadqiq etish va kelajak avlodlarga etkazish gʻoyat muhim vazifalardan biridir. Qadimgi Qashqadaryo vodiysini tarixiy yodgorliklarini ilmiy tahlil qilish, oʻrganish boʻyicha olib borilayotgan tadqiqot ishlari mazkur hudud va xalqimiz tarixiga oid yangi ashyo va maʼlumotlar olish imkonini ochib berishdir. Bu yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarimizga hurmat va daxldorlik tuygʻularini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Milliy davlatchiligimiz tarixini oʻzida aks ettirgan va kelajak avlodlarga moziydan xabar beruvchi bunday arxeologik yodgorliklarni, tarixiy-madaniy obidalarni asrash har bir fuqaroning burchidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. SH. Mirziyoev. Erkin va farovon, demokratik oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz . Toshkent - «Oʻzbekiston» - 2016
2. SH. Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent - «Oʻzbekiston» - 2017
3. Fuqarolar Oʻzbekiston xalqining tarixiy, maʼnaviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidir.
4. *Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 49-modda.*
5. Juraev, O. J., & Sh, K. L. (2021). DETERMINATION OF SORPTION ABILITY OF ACETATE CELLULOSE MEMBRANE AND POLYMER ADDITIVES. *Journal of Advanced Scientific Research (ISSN: 0976-9595), 1(1).*
6. Максимчук, О. В., Якубов, К. А., Жураев, О. Ж., Борисова, Н. И., Чижо, Л. Н., Антонян, О. Н., & Соловьева, А. С. (2020). Экономика строительства и эксплуатации систем водоснабжения и водоотведения: умные технологии и решения.
7. Jurayev, O., & Sobirova, D. (2019). WATER SOFTENING WITH REVERSE OSMOSIS AND ULTRAFILTRATIONS. *Problems of Architecture and Construction, 2(2), 78-80.*
8. Ганчеренок, И. И., Горбачев, Н. Н., Рахимов, А. Р., & Жураев, О. Ж. (2020). Глобальные



вызовы и новые модели образования для устойчивого развития. In НАУКА И ОБРАЗОВАНИЕ: БУДУЩЕЕ И ЦЕЛИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ (pp. 176-185).

9. Ганчерёнок, И. И., Горбачёв, Н. Н., Спиридонов, В., Рахимов, А. Р., Жураев, О. Ж., & Киринович, О. А. (2021). Цифровая трансформация в строительстве: информационное моделирование/под редакцией СВ Харитончика и СИ Ахмедова. Минск-Самарканд: Изд-во СамГУ.
10. Максимчук, О. В., Якубов, К. А., Жураев, О. Ж., Борисова, Н. И., Чижо, Л. Н., Антонян, О. Н., & Соловьёва, А. С. (2020). Экономика строительства и эксплуатации систем водоснабжения и водоотведения: умные технологии и решения.
11. B. V. Veymarna, V. A. Lavrova, A. M. Pribytkovoy, M. A. Useynova, O. X. Xalraxchyana Tom 8 : Arxitektura stran Sredizemnomorya, Afriki i Azii. VI—XIX vv.
12. Nurmuradova Y.B., Sadikov J. Drevnie bazary istoricheskix gorodov Uzbekistana. NAUKA I SOVRIMENNOE OBIJESTVO: Aktualnye voprosy dostijeniya i innovatsii sbornik statey i mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii. sostoyavsheysya 23 maya 2020 g.v.g.Penza
13. Nurmuradova Y.B., Boxodirova R. "Samarqand va Toshkent qadimgi an'anaviy bozorlari"., International Journal of Psychosocial Rehabilitation. April 2020, Volume 23. Issue8. pp 5346-5352
14. Qo'ziyevich, E. I., & Elmuradovna, J. E. (2023). QADIMGI QARSHI SHAHRI ARXIOLOGIK YODGORLIKLARI ARXITEKTURASINI ILMIY TAHLILI. ARXITEKTURA, MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR JURNALI, 2(2), 58-61.
15. Jurayeva, E. E. (2023). ARCHITECTURE OF TASHKENT REGISTON SQUARE. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(1), 190-203.
16. Qo'ziyevich, E. I., & Elmuradovna, J. E. (2023). THE SCHEME OF TERRITORIAL PLACEMENT OF AGGLOMERATION COMMERCIAL AND HOUSEHOLD COMPLEXES IN UZBEKISTAN. ARXITEKTURA, MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR JURNALI, 2(2), 62-67.